

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Qoraqalpog'iston Respublikasi doimiy aholisi soni 2019 yil 1 iyul holatiga **1881944** kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan **12162** kishiga yoki **0,6 %**ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni **923392** kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,1 %**), qishloq aholisi soni **958552** kishini **50,9 %**) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2019 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **12162** kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **17803 nafarni** tashkil etdi.
- **3922 ta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **7066 ta nikoh** va **642 ta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Yanvar-iyun oylarida

Yil boshiga doimiy aholi soni
1869782 kishi
(2019 yil 1 yanvar holatiga)

Tirik
tug'ilganlar
soni
17803
bola

Vafot
etganlar soni
3922
kishi

Tabiiy o'sishi
13881
kishi

Ko'chib
kelganlar
5656
kishi

Ko'chib
ketganlar
soni
7375
kishi

Mexanik o'sish
(kamayish)
-1719
kishi

Doimiy aholi soni
1881944 kishi
(2019 yil 1 iyul holatiga)


Demografik holat

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha doimiy aholi soni (1 iyul holatiga)(ming kishi)

	2018 y.	2019 y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1853,7	1881,9	101,5
Nukus sh.	313,0	317,3	101,4
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	192,9	196,9	102,1
Beruniy	185,4	189,2	102,0
Qorao'zak	52,1	52,5	100,8
Kegeyli	89,1	89,6	100,6
Qo'ng'irot	127,5	129,1	101,3
Qonliko'l	50,0	50,6	101,2
Muynoq	31,0	31,5	101,6
Nukus	48,6	49,7	102,3
Taxiyatosh	72,3	73,3	101,4
Taxtako'pir	39,8	39,9	100,3
To'rtko'l	208,0	212,0	101,9
Xo'jayli	120,3	121,8	101,2
Chimboy	114,4	115,5	101,0
Shumanoy	55,3	55,8	100,9
Ellikqal'a	154,0	157,2	102,1

Demografik holat

Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 iyul holatiga, respublika jami aholisiga nisbatan, %da)



Demografik holat


Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 17,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 19,1 promilleni tashkil etdi hamda 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega oshganligi (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 18,5 promille bo'lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




**Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti
(2019 yil yanvar-iyun)**



Demografik holat

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 3,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,2 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaygan (2018 yilning yanvar- iyun oylarida 4,4 promille bo'lган).

**Tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti
(2019 yil yanvar- iyun)**



2019 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 57,4 % - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 12,5 % - o'simtalardan, 7,6 % - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,2 % - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,4 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,2 % - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 13,7 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Ro'yxatga olinan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,2 ming nafarni tashkil etib, ularning 75,4 % - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 5,3 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 8,0 % - tug'ma anomaliyalardan, 0,5 % - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 1,1 % - yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,5 % - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 9,2 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(2019 yil yanvar- iyun holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)



Demografik holat

Tumanlar kesimida asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %)



Demografik holat

Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 13,9 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 1,0 ming kishiga (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 12,9 ming kishi bo'lgan) o'sgan.

Tabiiy o'sish — 13,9 ming kishi




Nikoh. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 7,1 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,6 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri (20,7 %), Qanliko'l (14,7 %), Qorao'zak (10,7 %), Shumanay (5,9 %), va Qo'ng'iroq (5,6 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.




Tumanlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,7 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Amudaryo (40,4 %), To'rtko'l (11,4 %), va Mo'ynoq (10,0%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar- iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Migratsiya. 2019 yil yanvar-iyun oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5,7 ming kishini (5,6 ming kishi respublika hududlaridan, 0,1 ming kishi xorijiy mamlakatlardan), ko'chib ketganlar soni esa 7,4 ming kishini (5,9 ming kishi respublika hududlariga, 1,5 ming kishi xorijiy mamlakatlarga) tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,7 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 1,6 ming kishi bo'lган.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar- iyun	2019 yil yanvar- iyun
Ko'chib kelganlar	5,7	5,7
Ko'chib ketganlar	7,3	7,4
Migratsiya saldosi	-1,6	-1,7

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Chimboy (minus 511 kishi), Kegeyli (minus 432 kishi) va Qo'ng'irot (minus 207 kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Nukus shahrida (plus 395 kishi) kuzatildi.



Poytaxtdagi demografik holat. Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2019 yil 1 iyul holatiga 317,3 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 2,4 ming kishiga yoki 0,8 %ga o'sgan.

Nukus shahri aholisi tabiiy harakati

(1000 aholiga nisbatan, promille)



2019 yilning yanvar-iyun oylarida 2,6 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 6,8 promilleni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 ga (2018 yilning mos davrida 16,6 promille bo'lgan) o'sdi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida 0,6 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, shundan 38 nafari 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soniga to'g'ri kelmoqda. O'lim koeffitsienti 4,1 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,2 ga kamaydi (2018 yilning mos davrida 4,3 promille bo'lgan).

Poytaxt aholisining tabiiy o'sishi 2,0 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming kishiga o'sishi (2018 yilning mos davrida 1,9 ming kishi bo'lgan) kuzatildi.


FHDYO organlarida 2019 yilning yanvar- iyun oylarida 1,2 mingta nikoh va 0,2 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi.

1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,6 promilleni tashkil qilib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,2 ga o'sdi (2018 yilning mos davrida - 6,4 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,1 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega (2018 yilning mos davrida 1,0 promille bo'lgan) o'sgan.

Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(1000 aholiga nisbatan,
yanvar- iyun holatiga, promille)



Nikoh
tuzish koeffitsiyenti
Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
(71) 230-82-18
(61) 222-76-57